

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI

**DOKTORANTLARNING ILMIY-TADQIQOT ISHLARI BILAN SHUG‘ULLANISHLARI  
UCHUN MODDIY SHART-SHAROITLAR YARATISH VA MEHNAT FAOLIYATINI  
YANADA RAG‘BATLANTIRISH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son qarori ijrosi yuzasidan, shuningdek doktorantlarni ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarga biriktirish hamda uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari berish orqali ularning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 — 2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to‘g‘risida” 2016-yil 21-oktabrdagi PQ-2639-son hamda “2017 — 2020-yillarda shaharlarda arzon ko‘p kvartirali uy-joylar qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 22-noyabrdagi PQ-2660-son qarorlarida (keyingi o‘rinlarda dasturlar deb ataladi) nazarda tutilgan tartibda va mablag‘lar hisobidan uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari (keyingi o‘rinlarda ipoteka krediti deb ataladi) berishning quyidagi shartlari belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

shaharlarda ko‘p kvartirali arzon uy-joylar qurish va rekonstruksiya qilish uchun — 3 yillik imtiyozli davr va dastlabki 5 yil mobaynida yillik 7 foiz miqdoridagi foiz stavkasi bilan va keyingi davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida 20 yil muddatga beriladi, bunda dastlabki badal kvartira qiymatining 25 foizini tashkil etadi;

qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish va rekonstruksiya qilish uchun — 3 yillik imtiyozli davr va dastlabki 5 yil mobaynida yillik 7 foiz miqdoridagi foiz stavkasi bilan va keyingi davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida 15 yil muddatga beriladi, bunda dastlabki badal quyidagi miqdorni tashkil etadi:

ikki, uch qavatli ko‘p kvartirali (2 va 3 xonali) uylar va 2, 3 xonali bir qavatli uylar uchun — 15 foiz;

ikki qavatli 4 xonali birlashtirilgan uylar uchun — 25 foiz.

2. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq tayanch doktoranturaning 2-kursidan boshlab, doktorantlar uchun ushbu qarorning 1-bandida nazarda tutilgan dasturlar doirasida shaharlarda ko‘p kvartirali arzon uy-joylar hamda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish va rekonstruksiya qilish uchun tijorat banklarining uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari 25 yil muddatga beriladi.

3. Doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

4. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Fanlar akademiyasi, tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarida oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti mavjud bo‘lgan vazirlik va idoralar:

*(4-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-fevraldagi 109-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.02.2018-y., 09/18/109/0699-son)*

Doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq doktorantlarni ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarga biriktirilishini ta’minlasinlar;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga [2-ilovaga](#) muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari J.A. Qo‘chqorov va O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi bosh direktori M.R. Boltabayev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 17-oktabr,  
839-son

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-oktabrdagi 839-son [qaroriga](#)  
1-ILOVA

## **Doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son [qaroriga](#) muvofiq doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

tayanch doktorantura — O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo‘yicha oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim shakli;

doktorantura — O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo‘yicha oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim shakli;

doktorant — oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasasiga tayanch doktorantura yoki doktoranturaga belgilangan tartibda qabul qilingan, falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun izlanishlar olib borayotgan shaxs;

*[Oldingi tahrirga qarang.](#)*

Idoralararo ilmiy-texnik kengashlar — O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligida (keyingi o‘rinlarda Vazirlik deb ataladi) tegishli fan tarmoqlari bo‘yicha tashkil etilgan ilmiy-texnik kengashlar;

*(2-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-fevraldagi 109-sonli [qarori](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.02.2018-y., 09/18/109/0699-son)*

ekspertlar guruhleri — Idoralararo ilmiy-texnik kengashlar huzurida fan yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etilgan ekspertlar guruhleri.

#### **2-bob. Doktorantlarni ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarga birlashtirish**

3. Doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag'batlantirish maqsadida muhim ilmiy yutuqlarga erishgan doktorantlar davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tasarrufidagi ishlab chiqarish korxonalar va tashkilotlarga (keyingi o'rinlarda korxonalar va tashkilotlar deb ataladi) birlashtiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

4. Vazirlik tomonidan har yili 15-yanvargacha korxonalar va tashkilotlarga ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlariga bo'lgan ehtiyojlar ro'yxatini Vazirlikka taqdim etish to'g'risida so'rov yuboriladi.

*(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-fevraldagi 109-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2018-y., 09/18/109/0699-son)*

5. Agentlik so'roviga asosan korxonalar va tashkilotlar o'zlarining ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlariga bo'lgan ehtiyojlari ro'yxatini 1-fevralgacha Agentlikka taqdim etadi.

Korxonalar va tashkilotlarning ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlariga bo'lgan ehtiyojlari ro'yxatini shakllantirishda iqtisodiyotning tegishli tarmoq yoki sohasini respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar talablariga muvofiq yanada rivojlantirish istiqbollari ustuvor ahamiyat qaratiladi.

6. Agentlik tomonidan har yili 5-fevralgacha korxonalar va tashkilotlarning ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlariga bo'lgan ehtiyojlari ro'yxati shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlar kesimida shakllantirilgan ehtiyojlar ro'yxati 5-fevralgacha Agentlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

7. Doktorantlarni korxonalar va tashkilotlarga birlashtirish Agentlik tomonidan tashkil etiladigan tanlov natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

8. Tanlov har yili 10-fevraldan 28-fevralgacha tashkil etiladi. Tanlov to'g'risidagi ma'lumotlar tanlov boshlanishidan kamida bir oy oldin ommaviy axborot vositalari, shuningdek, internet-nashrlar, jumladan Vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

*(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-fevraldagi 109-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2018-y., 09/18/109/0699-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

9. Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan doktorantlarning ro'yxati ular ta'lim olayotgan ilmiy-tadqiqot va/yoki oliy ta'lim muassasasi bevosita bo'ysunuvchi vazirlik yoki idoralarning rasmiy xati asosida ushbu Nizomning 10-bandida belgilangan talablarga muvofiq tegishli hujjatlarning nusxalari ilova qilingan holda Vazirlikka taqdim etiladi.

*(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-fevraldagi 109-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2018-y., 09/18/109/0699-son)*

10. Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan doktorantlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

xorijiy tillardan birini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi va buni tasdiqlovchi tegishli sertifikatning mavjudligi (IELTS (o'rtacha 5,5 balldan kam bo'lmagan), TOEFL (RVT) (567 balldan kam bo'lmagan), TOEFL (iBT) (87 balldan kam bo'lmagan) hamda kamida V2 darajasidagi CEFR (Common European Framework of Reference), Test DaF (Test Deutsch als Fremdsprache für ausländische Studienbewerber), GOETNE-ZERTIFIKAT, DALF (Diplome approfondi de langue française), Davlat test markazining malakaviy sertifikati);

doktorlik dissertatsiyasi mavzusi bo'yicha xorijiy nashrlarda kamida 1 ta, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatida ko'rsatilgan sohaviy jurnallarda kamida 2 ta ilmiy maqolasi chop etilgan bo'lishi;

doktorantlar tomonidan bajarilayotgan doktorlik dissertatsiyasi mavzusi korxonalar va tashkilotlarning ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlariga bo'lgan ehtiyojlari ro'yxatiga mos bo'lishi. Bunda doktorant va uning ilmiy rahbari (maslahatchisi) tomonidan imzolangan asosnoma taqdim etiladi.

11. Tanlovga taqdim etilgan hujjatlar ekspertlar guruhlarini tomonidan ko'rib chiqiladi.

Zarur hollarda ekspertlar guruhlari tarkibiga nufuzli olim va mutaxassislar hamda korxonalar va tashkilotlarning vakillari jalb etilishi mumkin. Bunda ekspert guruhlari tarkibining soni to'q bo'lishi lozim.

12. Ekspert guruhlari 10-martgacha tanlovga taqdim etilgan hujjatlarni har tomonlama ko'rib chiqib, Idoralararo ilmiy-texnik kengashlarga tegishli xulosa taqdim etadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

13. Idoralararo ilmiy-texnik kengashlar ekspert guruhlari tomonidan taqdim etilgan xulosa asosida yakuniy xulosa ishlab chiqadi va 15-martgacha Vazirlikka kiritadi.

*(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-fevraldagi 109-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2018-y., 09/18/109/0699-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

14. Idoralararo ilmiy-texnik kengashlarning xulosasi asosida 20-martgacha bo'lgan muddatda Vazirlik bosh direktori tomonidan doktorantni korxonalar yoki tashkilotga biriktirish to'g'risidagi ro'yxat tasdiqlanadi.

*(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-fevraldagi 109-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2018-y., 09/18/109/0699-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

15. Tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan doktorantni tegishli korxonalar yoki tashkilotga biriktirish har yili 25-martgacha bo'lgan muddatda Vazirlik, manfaatdor korxonalar yoki tashkilot hamda oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi o'rtasida tuziladigan uch tomonlama shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Shartnoma uch nusxada imzolandi, birinchi va ikkinchi nusxalar Vazirlik va manfaatdor korxonalar yoki tashkilotda saqlanadi, uning uchinchi nusxasi Vazirlik tomonidan doktorant ta'lim olayotgan ilmiy-tadqiqot yoki oliy ta'lim muassasasiga yuboriladi.

*(15-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-fevraldagi 109-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2018-y., 09/18/109/0699-son)*

16. Shartnomada doktorantga korxonalar yoki tashkilot tomonidan yaratib beriladigan shart-sharoitlar (ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun xona va zarur ofis jihozlari ajratish, ilmiy-tahliliy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati, moddiy rag'batlantirish miqdori), shuningdek doktorant tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi va undan kutilayotgan natijalar aniq belgilab olinadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

17. Korxonalar yoki tashkilotlarga biriktirilgan hamda doktorlik dissertatsiyalarini o'z muddatida muvaffaqiyatli himoya qilgan doktorantlarning bitiruvchilari Vazirlikning yo'llanmasi asosida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirish uchun yuboriladi.

*(17-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-fevraldagi 109-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2018-y., 09/18/109/0699-son)*

18. Doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag'batlantirish tartibi ushbu Nizomga ilova qilingan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

### **3-bob. Doktorantlarni moddiy rag'batlantirish**

19. Korxonalar va tashkilotlarga biriktirilgan doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishi uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish maqsadida ularning oylik stipendiyasining 50 foizigacha miqdorida moddiy rag'batlantirish ushbu Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan uch tomonlama shartnoma asosida korxonalar va tashkilotlarning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Moddiy rag'batlantirish to'lovlari doktorantlarning korxonalar va tashkilotlarga biriktirilgan davri mobaynida amalga oshiriladi.

20. Doktorantlarni korxonalar va tashkilotlarga biriktirish muddati yakunlanganidan so'ng ilmiy-tadqiqot ishlari xo'jalik shartnomalari asosida amalga oshirilishi mumkin.

#### **4-bob. Yakunlovchi qoida**

21. Ushbu Nizom talablari buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi **nizomga**  
ILOVA

#### **Doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag'batlantirish tartibi**

##### **SXEMASI**



Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-oktabrdagi 839-son **qaroriga**  
2-ILOVA

#### **O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 25-maydagi 148-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2009-y., 22-son, 259-modda) bilan tasdiqlangan Yakka tartibda hamda qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurilishida qatnashuvchi tijorat banklari — “Qishloq qurilish bank” ATB, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, “Ipoteka bank” ATIB, AT “Xalq banki”, “Asaka bank” ATB va “O'zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan imtiyozli ipoteka krediti berish tartibi to'g'risidagi nizomning **7-bandi** quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Ipoteka kreditlari uch yildan iborat imtiyozli davr bilan tayanch doktoranturaning 2-kursidan boshlab, oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida tahsil olayotgan doktorantlar uchun 25 yil muddatga beriladi”.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-yanvardagi 14-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 1-son, 52-modda) bilan tasdiqlangan Ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish, shuningdek yosh oilalarga, eskirgan uy-joylarda yashayotganlarga va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarning boshqa toifalariga sotish tartibi to'g'risidagi **nizomda**:

a) **38-band** quyidagi mazmundagi “z” kichik band bilan to'ldirilsin:

“z) tayanch doktoranturaning 2-kursidan boshlab, oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida tahsil olayotgan doktorantlar”;

b) **62-band** “20 yil muddatga” so'zlaridan keyin “shuningdek tayanch doktoranturaning 2-kursidan boshlab, oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida tahsil olayotgan doktorantlar uchun 25 yil muddatga” so'zlari bilan to'ldirilsin.

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.10.2017-y., 09/17/839/0131-son, 15.02.2018-y., 09/18/109/0699-son)*